

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhhammadov, X.N.Qosimova</b> Kitobxonlik – buyuk kelajak kafolati.....	8
<b>T.A.Egamberdiyeva</b> Turkiy xalqlar milliy madaniyatlari shakllanishining ijtimoiy va etnopedagogik asoslari .....	13
<b>N.T.To‘xtaboyev</b> Balandlikka sakrovchi sportchilar tayyorlaydigan murabbiylar o‘rtasida anketa so‘rovnomasi tahlili .....	18
<b>I.B.Siddiqov</b> Tarixiy-badiiy asarlar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning muhim omili sifatida.....	25
<b>N.R.Gafurova, T.A.Egamberdiyeva</b> Ta‘lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning maqsadli pedagogik tizimi .....	28
<b>Sh.A.Mamajonov</b> Oliy ta‘lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish.....	32
<b>M.M.Kuzibayeva</b> Vrach-shifokorning pedagogik faoliyatiga qo‘yiladigan vazifalar.....	37
<b>K.R.Abdullayeva</b> Xalq pedagogikasi vositasida o‘quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	39
<b>Sh.K.Xujamberdiyeva</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari .....	43
<b>U.Q.Maqsudov, R.A.Abdullayev</b> Talabalarning ma‘naviy-axloqiy kompetentligini jadid pedagogikasi vositasida rivojlantirishning imkoniyatlari .....	48
<b>R.Z.Xayrov</b> Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligida pedagogik tashxis va baholash mezonlari.....	54
<b>G.U.Radjabova</b> Ta‘lim tashkilotining marketing strategiyasini shakllanishi.....	61
<b>Г.К.Якубова</b> Сравнительная динамическая двигательная потенциала детей с нормативными требованиями первой и второй возрастной групп тестов здоровья "Здоровье" .....	67
<b>M.M.Xamroliev</b> Fanlararo hamkorlik asosida o‘quvchilar bilimini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	73
<b>U.V.Mamadjanov</b> Maktabda musiqa fanini o‘qitishning metodologik asoslari .....	76
<b>S.X.Kaxxarov</b> Yoshlarda harbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari .....	80
<b>X.X.Tojiyev</b> Texnologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash .....	85
<b>D.S.Sobirov</b> Ta‘limdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning pedagogik jihatlari .....	92
<b>D.Z.Isaboyeva</b> Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarida zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (Xalqaro baholash dasturi) .....	96
<b>F.Q.Yusupjanova</b> O‘qituvchining pedagogik qobiliyatlari va uning komponentlari .....	99
<b>X.A.Ustadjalilova</b> Pedagogik tadqiqotlar metodlari va statistik gipotezalarning nazariy jihatlari.....	102

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIY ASARLAR BILAN  
TANISHTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI****СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ОЗНАКОМЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ С  
ХУДОЖЕСТВЕННЫМИ ПРОИЗВЕДЕНИЯМИ****MODERN TECHNOLOGIES FOR FAMILIARIZING PRESCHOOLERS WITH FICTION****Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Namangan davlat universiteti, maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti,  
pedagogika fanlari doktori (DSc)**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada badiiy adabiyot insoniy va ma'naviy qadriyatlarini ochib beradigan, bolalarni aqliy, axloqiy va estetik tarbiyalashning kuchli, samarali vositasi bo'lib xizmat qiladigan, bolaning nutqini rivojlantirish va boyitishda ulkan ta'sir ko'rsatadigan vosita ekanligi va maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari haqida so'z boradi.*

**Аннотация**

*В данной статье показано, что художественная литература является инструментом, раскрывающим человеческие и духовные ценности, служит мощным и эффективным средством интеллектуального, нравственного и эстетического воспитания детей, оказывает большое влияние на развитие и обогащение речи детей, детей дошкольного возраста. Речь идет о современных технологиях внедрения произведений искусства.*

**Abstract**

*This article shows that fiction is a tool that reveals human and spiritual values, serves as a powerful and effective tool for intellectual, moral and aesthetic education of children, has a great impact on the development and enrichment of children's speech, and preschool children. It is about modern technologies of introducing works of art.*

**Kalit so'zlar:** badiiy adabiyot, nutqiy kompetensiyalar, estetik tarbiya, ertak, idrok etish, nutqining musiqiyliigi, ohangdorligi, adabiy resurs.

**Ключевые слова:** художественная литература, речевые компетенции, эстетическое воспитание, сказка, восприятие, музыкальность речи, мелодия, литературный ресурс.

**Key words:** fiction, speech competences, aesthetic education, fairy tale, perception, musicality of speech, melody, literary resource.

**KIRISH**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish jarayoni maktab ta'limi mazmuni bilan optimallashtirilgan holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki bolalarda badiiy adabiyot bilan tanishish orqali maktabda o'qitiladigan o'quv fanlarini o'zlashtirish uchun kerakli nutqiy zaxira shakllantiriladi. Ular atrofdagilar bilan muloqotga tayyor bo'ladilar. Bundan tashqari o'z fikrini asoslashga va nutqiy jozibador tarzda yetkazishga o'rganadilar. Sanab o'tilgan ko'nikmalarga erishish uchun badiiy adabiyot va nutq o'stirish mashg'ulotlari interfaol usullar va o'qinli texnologiyalar asosida tashkil etilishi kerak. Har qanday mashg'ulotda kitobning mohiyati va bola shaxsining shakllanishiga ijtimoiy-madaniy ta'sirini pedagog anglamog'i lozim. Ma'lumki, kitob bolani insoniy tuyg'ular, quvonch va iztiroblar, munosabatlar, motivlar, fikrlar, harakatlar, xarakterlar olami bilan tanishtiradi. Eng muhimi, insonga nazar solish, uni ko'rish va tushunish, o'zida insoniylikni tarbiyalashga o'rgatadi. Kitob insoniy va ma'naviy qadriyatlarini ochib beradi, bolalarni aqliy, axloqiy va estetik tarbiyalashning kuchli, samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi, bolaning nutqini rivojlantirish va boyitishda ulkan ta'sir ko'rsatadi. She'riy obrazlarda badiiy adabiyot bolaga jamiyat va tabiat hayotini, inson tuyg'ulari va munosabatlari olamini ochib, tushuntirib beradi. U his-tuyg'ularni boyitadi, tasavvurni rivojlantiradi va bolaga o'zbek adabiy tilining ajoyib namunalari beradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Tarbiyachi tomonidan o'qib berilgan badiiy adabiyotlarni idrok etish davomida bola nutq va estetik rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik yaqqol ko'zga tashlanadi, til o'zining estetik vazifasida o'zlashtiriladi. Tilning obrazli, ifodali vositalariga egalik qilish adabiy asarni badiiy idrok etishning rivojlanishiga xizmat qiladi. Badiiy asarlar orqali adabiy tilning ajoyib namunalari o'rganuvchi ongiga

tezda kirib boradi, xususan, hikoyalarda bolalar tilning ixchamligi va aniqligini o'rganadilar; she'rlar orqali esa o'zbek nutqining musiqiyliigi, ohangdorligini his etadilar, ertaklardagi aniq syujet hamda ifodalilik orqali uning mazmunini yaqindan anglab yetadilar.

V.A.Suxomlinskiy "Kitob o'qish – mohir, zukko, tafakkurli tarbiyachi tomonidan bola qalbiga tomon topadigan yo'ldir" deb ta'kidlagan.

Bolalar adabiyoti uchun ilmiy va tabiiy mavzudagi kitoblar, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi asarlar, shuningdek, ijtimoiy va axloqiy mavzularga bag'ishlangan asarlar beqiyos ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim nazariyasiga ulkan hissa qo'shgan K.D.Ushinskiy xalq ertaklarini bolalarni axloqiy va estetik tarbiyalashning samarali vositasi deb hisoblagan. U o'zining "Bolalarning aqliy va axloqiy tarbiyasi" kitobida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash uchun ochiq va foydali bo'lgan bir qator xalq ertaklarini taqdim etadi. E.N.Vodovozova ertak bolalarning bilim va kuzatishlariga asoslanishi, bolalarning boy tasavvurlarini rivojlantirishi, bolalar nutqini boyitishga hissa qo'shishi, nutq burilishlari va xalq nutqining go'zalligini o'rganishga yordam berishini ta'kidladi. Bolalar adabiyoti umumiy adabiyotning bir qismidir, lekin alohida hodisa sifatida ajralib turadi.

Bolalar adabiyoti tuzilmasi uchta asar guruhini o'z ichiga oladi: to'g'ridan-to'g'ri bolalarga qaratilgan, o'rta yoshli o'quvchilar uchun yozilgan bo'lsa-da, lekin asar mazmunida kichik yoshdagi bolalar ta'siri aks etgan asarlar; bolalar tomonidan yaratilgan asarlar, ya'ni bevosita bolalarning adabiy ijodi asosida yaratilgan asarlardir.

N.G.Chernishevskiy va N.A.Dobrolyubovlar esa o'z izlanishlarida bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini yanada rivojlantirishda yozuvchining psixologiya faniga doir bilimlari nihoyatda zarurligi alohida to'xtalib o'tganlar. Pushkin, Kolsov, Turgenyev, Nekrasov, Tolstoy asarlari, Andersening ertaklari, aka-uka Grimmlar va boshqalarni bolalar kitobxonligi to'garagiga kiritdilar. MDH olimlari N.I.Novikov, V.F.Odoevskiy, V.G.Belinskiylar ham bolalarning dunyoqarashi, estetik didini shakllanishida badiiy asarlarni rolini keng ochib berganlar. F.I.Setin esa bolalar adabiyoti tadqiqotchisi sifatida o'z asarlarida bolalar adabiyotining paydo bo'lishi va uning rivojlanishining asosiy bosqichlarini batafsil ko'rib chiqqan. Uning fikricha, Rossiyada bolalar adabiyotining paydo bo'lishi XV asrga to'g'ri kelib, bolalar uchun kitoblar mavjudligining birinchi bosqichida nafaqat ta'lim, balki tarbiyaviy maqsadlar ham ko'zlangandir.

V.G.Belinskiyning bolalar adabiyoti va bolalar mutolaasi haqidagi maqolalari bolalar uchun sifat jihatidan yangi asarlarning paydo bo'lishiga, shuningdek, bolalar adabiyotida yangi yo'nalishlarning qaror topishiga xizmat qildi.

Badiiy adabiyot orqali bolalarning tarbiyasiga tizimli ravishda ta'sir etib borish mumkin. Ana shu ma'noda mazkur jarayonni tashkil etishdagi asosiy tamoyil sifatida ham belgilab olish mumkin. Badiiy adabiyot bolaning dunyoqarashini rivojlantirishi adabiy asar til shakllarini, tasvirning og'zaki xususiyatlarini, bola bilan ishlaydigan ta'riflarni beradi, uning yordamida nutqning grammatik qoidalarini o'zlashtirish, tilning grammatik me'yorlarini tushuntirish mumkin".

L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, B.M.Teplov, A.V.Zaporojets, O.I.Nikiforova, E.A.Flerina, L.M.Gurovich va boshqa olimlarning asarlarida maktabgacha yoshdagi bolaning badiiy adabiyotni idrok etish xususiyatlari o'rganiladi. Badiiy adabiyot orqali bolalar ko'plab yangi so'zlarni, majoziy iboralarni o'rganib, o'z nutqlarini hissiy va she'riy lug'atlar bilan boyitib boradilar. Adabiyot bolalarga taqqoslash, metafora, epitet va boshqa majoziy ifoda vositalaridan foydalangan holda, eshitgan narsalariga o'z munosabatini bildirishga yordam beradi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqotda muammoga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar, pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, tizimli-struktur tahlil, kuzatish, suhbat, maxsus pedagogik-psixologik metodikalar, tajriba-sinov, matematik-statistik usullardan foydalanilgan.


### **TAHLILLAR VA NATIJALAR**

Kitobga bo'lgan muhabbat bolaga o'z-o'zidan "kelmaydi". Kattalarning faol yordami kerak: pedagoglar, kitobxon bolalar va ota-onalar. Kitobda bolani asarni sevishga o'rgatish bo'yicha tayyor ko'rsatmalar berilmagan.

Maktabgacha yoshdagi bolaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u o'qiy olmaydi. Ularda o'qishning o'rnini eshitish va ko'rish qoplaydi. Shu bilan birga, bolalar tinglash, rasmlarga qarash, eshitganlari haqida o'ylash, adabiy matnda nima sodir bo'layotganini boshdan kechirish kabi o'qish faoliyatining kichik shakllarida o'zini namoyon etadilar. Adabiy asarlarni tinglagan bola, uning ko'z

oldida tasvirlangan voqealarni real ko'rmaydi. U o'z tajribasiga asoslanib, ularni taasurotlari yordamida aytib beradi. Badiiy adabiyot bilan tanishish, asar g'oyasi va qahramonlar harakatlarini anglash va farqlash maktabgacha ta'lim tashkilotida amalga oshiriladigan o'quv-pedagogik jarayon mahsulidir. Bunda tarbiyachi hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'quv-pedagogik jarayonning samaradorligi mazkur badiiy asarlarni bola ongiga yetkazib berishdagi mahoratga ko'p jihatdan bog'liqdir. Tarbiyachi tomonidan mazkur faoliyatni qanday borishi avvaldan baholanganligi, ta'limda sifat ko'rsatgichiga erishish kafolatlanadi.

Tadqiqot doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish jarayonining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashda quyidagi bosqichlar asos qilib olindi (3.3.1-rasmga qarang):



**1-rasm. MTTda badiiy asarlar bilan tanishtirish bosqichlari**

Tanishuv bosqichi bevosita tarbiyachi bilan hamkorlikda olib boriluvchi bosqich hisoblanib, uning vazifasi o'rganiladigan asar bilan tanishtirishdan iboratdir. Bunda badiiy asar ifodali o'qish yordamida bolalarga yetkazib beriladi.

Adaptiv bosqich esa, badiiy asar bilan tanishtirish jarayoniga bolalarning moslashishidir. Psixologik adabiyotlar tahliligiga ko'ra, adaptatsiya (lotincha adaptatio – moslanmoq, sozlanmoq) – tabiat yoki jamiyat hayotida, bolaning ma'naviy-ruhiy olamida kechadigan o'ziga xos jarayon bo'lib, biron-bir muhit yoki sharoitga, yangilikka moslashuvni anglatadi. Bola badiiy asar bilan tanishish jarayoniga moslashishi samarali kechishi guruhda yaratilgan badiiy- ijodiy muhitga ko'p jihatdan bog'liqdir. Badiiy-ijodiy muhit orqali asar mazmuni va undagi qahramonlarning ruhiy, ma'naviy holatini tezroq anglaydilar. Shu ma'noda har bir tarbiyachi MTTda har bir guruhning yosh xususiyatlariga mos muhitni yaratishi maqsadga muvofiqdir.

Badiiy matnni idrok etish esa tanishtirilayotgan badiiy asarning asosiy mazmuni, ahamiyatini, asar qahramonlarining xususiyatlari, holatlarini bolalar tomonidan idrok etilishini xarakterlovchi bosqichdir.

Refleksiya bosqichi – bu badiiy asar mazmunini tushunish, anglash orqali bola uning mazmunini takrorlaydi, o'z faoliyatida aks ettiradi, kundalik hayotda duch keladigan real voqealarga solishtiradi, o'z harakatlari va holatlarini tahlil qiladi. O'z xarakteridagi xislatlarni tan olishi, baholashi va o'zi tomonidan nazorat qilinishiga erishish ham mazkur bosqichning muhim xususiyatlarini anglatadi.

Bola rasmlar ifodalarda va katta-katta harflarda o'zlashtirilgan ma'no orqali qahramonlarga nisbatan hissiy munosabatda bo'lishi, tasvirlangan voqealarni ko'rishi va ularni boshidan kechirishi kerak. Kitobga mehr hissi shakllangan bolalar o'zlari eshitgan yoki ko'rgan narsalarining mazmunini osongina anglay oladilar. Bola o'z tasavvurida har qanday syujetni modellashtiradi, xursand yoki xafagarchiligini yuz ifodasida aks ettira oladi, shaxsiy fikrlarini bildirib, eshitgan asar bo'yicha yorqin tasavvurlarga ega bo'la oladi. Natijada u o'zini voqealar ishtirokchisidek his qiladi. Bolalikda

tanishilgan kitob, kattalar o'qigan kitobdan ko'ra kuchliroq taassurot qoldiradi. Kattalarning vazifasi bolaga kitobdagi g'ayrioddiy narsalarni, tanishishga chorlaydigan zavqni ochib berishdir. Bundan tashqari bolani kitobga jalb qilish uchun, avvalo, adabiyotni o'zi sevishi, undan san'at asari sifatida zavqlanishi, o'z his-tuyg'ularini, kechinmalarini bolalarga yetkaza olishi kerak.

Badiiy asarlar qahramonlariga hamdard bo'lgan bolalar atrofdagi odamlarning kayfiyatini seza boshlaydilar. Ularda insoniy tuyg'ular uyg'ona boshlaydi. Ijtimoiy-madaniy munosabatlarda ishtirok etish, mehr-oqibat, adolatsizlikka qarshi norozilik ko'rsatish qobiliyati tarkib topadi.

Badiiy asarlar bilan tanishtirish nafaqat tarbiyachi tomonidan, balki bolalarning oila a'zolari tomonidan ham tashkil etiladi. Ota-onalarning badiiy asarlarni o'qishga qiziqishlari, farzandlari uchun kitob tanlab, harid qilishlari boladagi ishtiyoqni uyg'otishda asosiy o'rin tutadi. Uyda va bolalar bog'chasida bolani badiiy adabiyot bilan tanishtirishning yagona tamoyili bola uchun jarayonni tabiiy, uning hayotining zarur qismiga aylantirishdir. Badiiy adabiyot bolalarning aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishiga, ularning majoziy, grammatik jihatdan to'g'ri nutqini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Hech kimga sir emaski, zamonaviy jamiyatda bolani kitobxonlikka qiziqtirish muammosi ko'proq e'tiborni talab qilmoqda. Ma'lumki, bugungi kun bolalari ko'proq vaqtini televizor va kompyuter ko'rishga sarflamoqda. Butun dunyoda an'anaviy kitobga bo'lgan qiziqish asta-sekin so'nib bormoqda. Bosma nashrlar ikkinchi darajali bo'lib, elektron kitoblarni o'qish uchun qurilmalarga ustuvorlik berilmoqda. U yoki bu asarni o'qish uchun bugungi kunda kutubxonaga yugurish shart emas – kitobni Internetda topish mumkin. Shuni inobatga olgan holda, bolalarni axborot manbasini to'g'ri tanlashga yo'naltirish, shuningdek, yosh avlod o'rtasida kitobxonlik nufuzi va "mutolaa qiluvchi shaxs" mavqeyini oshirish pedagog va ota-onalarning vazifalari hisoblanadi.


Bolalar bog'chasida bolalarga badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotining maqsad va vazifalari qanday? Bu savolga maktabgacha ta'lim davlat standarti va unga asoslangan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturidan javob topish joiz. Mazkur hujjatlarda mashg'ulotning 2 ta yo'nalishi mujassam tarzda talqin etiladi:

#### **"Nutqni rivojlantirish" va "Badiiy adabiyot"**

Nutqni rivojlantirish o'z mazmunida bolalarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. "Badiiy adabiyot" nutqiy ko'nikmalar negizida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishni ko'zda tutadi. Dasturda mashg'ulot "Badiiy adabiyot va nutqni rivojlantirish" deb nomlanadi. Mashg'ulot orqali bolalar adabiyoti bilan tanishtirish va matnlarni tinglab tushunishga, tovushli analitik-sintetik faoliyatni shakllantirish ishlari amalga oshiriladi. Bundan tashqari mazkur mashg'ulotda badiiy adabiyot va folklor turlari haqida elementar g'oyalar shakllantiriladi va san'at asarlari qahramonlariga hamdardlikni rag'batlantirish, bolalarning mustaqil ijodiy faoliyatini amalga oshirish (tasviriy, konstruktiv-namunali, musiqiy va boshqalar) kabi pedagogik jarayonlar olib boriladi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'limning davlat ta'lim standartiga muvofiq bolalar bog'chasida kitob madaniyati, bolalar adabiyoti bilan tanishtirish bolalar nutqini rivojlantirish vositasi bo'lib, bu bolalarning faol so'z boyligini boyitish, izchil dialog va monologga tayyorlaydi, nutq va nutqiy ifodalash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Shundan kelib chiqqan holda, bolalar adabiyoti va nutq o'stirish masalalari bo'yicha eng mahoratli pedagog va motivator sifatida tarbiyachi faoliyat yuritishi talab etiladi. Tarbiyachi bolalarni kitobga qiziqitira oladigan, bolalar adabiyoti bo'yicha pedagogik jihatdan yuqori darajada ifodali o'qish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. U nafaqat bolalarni kitob bilan tanishtirish, ularda o'qish jarayoniga qiziqish uyg'otadi, asar mazmunini chuqur anglashga undaydi. Tarbiyachi oilaviy kitobxonlikni rivojlantirishda maslahatchi vazifasini ham bajaradi. Eng muhim vazifasi sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida badiiy matn va rasmlar (illyustratsiyalar) bilan ishlash texnologiyasini bilishi va o'rinli qo'llashi hisoblanadi. Agarda tarbiyachi mos texnologiyani qo'llasa va vaziyatga qarab boyitsa, bolalarga kitobning qadriyat ekanligini anglatishi, kitoblarni yaratish tarixi bilan tanishtirishi, turli-tuman bolalar adabiyotini taqdim etishi, nutq uslubi va matn janrlarini farqlashga o'rgatishi, o'qish madaniyatini shakllantirishida kutilgan natijalar kafolatlanadi.

Tadqiqot doirasida oilalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida badiiy adabiyot bilan tanishtirishning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi "**Bolalik va ilhom**" mualliflik dasturi ishlab chiqildi. Dasturdan foydalanish bo'yicha oilalarga metodik tavsiyalar berildi. Oilalarda farzandni adabiyot bilan tanishtirishni erta yoshdan boshlash kerakligi ta'kidlandi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan "**Bolalik va ilhom**" mualliflik dasturi asosan bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishga yaqindan yordam beruvchi bir qator innovatsion texnologiyalar bilan boyitilgandir (3.3.2-rasm).



**2-rasm. Badiiy adabiyot bilan tanishtirish texnologiyasi bosqichlari**

Xususan, badiiy adabiyot bilan tanishtirish texnologiyasi asosida badiiy asar mazmunini anglash va nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishga doir bosqichlarni ajratishga muvaffaq bo'linadi.

### XULOSA

Ushbu bosqichlardan shu jihat ma'lum bo'ldiki, har bir guruhlar uchun tavsiya etilayotgan mazkur texnologiya bosqichlari tarbiyalanuvchilarni badiiy asarlar bilan yaqindan tanishish imkonini berish bilan birga qadriyatli yondashuv tamoyillariga asoslanganligini yorqin isbotdir. Chunki har bir kitob o'z kitobxoniga qalbiga chinakam kirib bora olgandagina u qadriyarga aylana oladi. Kitobning qadriyat ekanligini anglagan kitobxon esa uning mashaqqatli uzoq mehnat jarayonida tayyor bo'lganligini ongli ravishda egallaydi. Har bir tanishtirilayotgan badiiy asarlar tarbiyalanuvchilarni adabiy ta'lim muhitiga kirib borishini ta'minlaydi. Tarbiyalanuvchi tomonidan turli-tuman bolalar adabiyotini taqdim etilishi ularning dunyoqarashini boyitib borish bilan bigra emotsional, irodaviy va intellektual qobiliyatlarini shakllantirib boradi.

Tadqiqot davomida tarbiyachi-pedagoglar va ota-onalar uchun seminarlar tashkil etildi.

Pedagog-tarbiyachilar uchun seminar asosan, mashg'ulotlarni interfaol usullar va zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etishni o'rgatishga bag'ishlandi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika. Pedagogika ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik "Sano-standart" nashriyoti - Toshkent.: 2017. 416-b.
2. Maxmudova D.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ertaklar vositasida kitobxonlikka tayyorlashning pedagogik mexanizmlari. "Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya" nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7214533>.
3. Флерина Е. А. Изобразительное творчество детей дошкольного возраста. М.,Гос. уч. пед. изд-во Минпроса РСФСР, 1956.-е. 160.
4. Grosheva I.V. va boshqalar. O'yin orqali ta'lim olish. Metodik qo'llanma. - Toshkent, 2020.
5. Abduraximova D.A. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish. Avtoref. p.f.d.(DSc). -T.:2020. -74 b.
6. Водовозова Е.Н. Умственное и нравственное воспитание детей от первого проявления сознания до школьного возраста. СПб.,1901.-с. 319-322.
7. Выготский Л.С. Психология развития человека. — М.: Изд-во Смысл; Эксмо, 2005. — 1136 с.
8. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии – Издательство: Питер, 2002 г., 720 стр.
9. Теплов Б. М. Проблемы индивидуальных различий. — М., 1961. (2-е изд. 1965) 140 стр.
10. И.Белинский В.Г., Чернышевский Н., Добролюбов Н.А. О детской литературе. М., Просвещение, - с.
- 8.
11. Л.Н.Толстой. Болалик дунёси ... 1996.